



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 17-mart

94-14-220-Q/25

Yangihayot tuman hokimligi

### **Yangihayot tumani hududidagi yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdosiga chiqarish chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2024-yil 15-maydagi 282-son qarori ijrosini ta'minlash hamda tuman hududidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2024-yil 15-maydagi 282-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangihayot tumani hokimining o'rinbosari (I.Xushvaqtov), Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot tumani filiali (A.Maxkamov):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-son Farmoni talablaridan kelib chiqqan holda ilovaga muvofiq yer maydonlarini ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion savdosiga chiqarilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasidan ushbu qarorga muvofiq ko'rsatib o'tilgan bo'sh yer uchastkalariga nisbatan Yangihayot tumani hokimligiga belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish so'zalsin.

4. Ushbu qarorga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer uchastkalari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlayn-auksion orqali ijara huquqi asosida realizatsiya qilinishi belgilab qo'yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Xushvaqtoev zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani**  
**hokimi**



**X.Inogamov**

Yangihayot tumani hokimining  
2025-yil 17-martdagi  
94-14-220-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

**Yangihayot tumani hududidan elektron onlayn-auksion savdosiga  
chiqariladigan yer maydoni  
RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Tuman nomi</b>	<b>Yer uchastkasi manzili</b>	<b>Yer uchastkasining “Yerelektron” AATdagi unikal raqami</b>	<b>Maydoni (gektar)</b>
<b>1.</b>	Yangihayot	“Binokor” MFY	KA1726292024/20	0,6512
<b>2.</b>	Yangihayot	“Xushnud” MFY	KA1726292029/5	0,1845
<b>Jami</b>				<b>0,8357</b>